

YAPON TILIDAGI KO'MAKCHI FE'LLARNING SEMANTIK GURUHLANISHI

Egamova Kamola

Annotatsiya: Yapon tilining sintaktik va semantik tizimida yordamchi fe'llar (ko'makchi fe'llar) alohida ahamiyatga ega. Ular asosiy fe'llar bilan birgalikda ishlatilib, fe'l shakllarini kengaytirish, ma'noni aniqlashtirish va grammatik munosabatlarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Ko'makchi fe'llar yordamida vaqt, holat, istak, imkoniyat, rasmiylik darajasi kabi ko'plab aspektlar va modifikatsiyalar aniq va samarali ifodalanadi. Shuning uchun yapon tilida to'g'ri va mazmunli nutqni shakllantirishda yordamchi fe'llarning o'ri beqiyosdir. Ushbu tezisda yapon tilidagi yordamchi fe'llarning umumiy tushunchasi, ularning turlari va lingvistik ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ko'makchi fe'l, aspekt, modal, ravishdosh, benefaktiv.

Аннотация: В синтаксической и семантической системе японского языка вспомогательные глаголы занимают особое место. Они используются совместно с основными глаголами и играют важную роль в расширении форм глаголов, уточнении значений и выражении грамматических отношений. С помощью вспомогательных глаголов эффективно и точно выражаются такие аспекты и модификации, как время, состояние, желание, возможность, степень формальности и другие. Поэтому вспомогательные глаголы имеют исключительное значение в формировании правильной и содержательной речи на японском языке. В данной работе рассматриваются общее понятие вспомогательных глаголов в японском языке, их виды и лингвистическая значимость.

Ключевые слова: вспомогательный глагол, аспект, модальность, деепричастие, benefaktiv.

Abstract: In the syntactic and semantic system of the Japanese language, auxiliary verbs hold a special significance. They are used together with main verbs

and play an important role in expanding verb forms, clarifying meanings, and expressing grammatical relations. Through auxiliary verbs, various aspects and modifications such as tense, state, desire, possibility, and level of formality can be expressed clearly and effectively. Therefore, auxiliary verbs are of great importance in forming correct and meaningful speech in Japanese. This thesis examines the general concept of auxiliary verbs in the Japanese language, their types, and their linguistic significance.

Keywords: auxiliary verb, aspect, modality, gerund, benefactive.

Yapon tilidagi aspekt kategoriyasi va uning asosida ko'makchi fe'llarning ilmiy o'rganilishi, avvalo, morfologik yondashuvlar doirasida boshlangan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan uning semantik, funksional va kognitiv jihatlari ham chuqur tahlil etila boshlandi. XX asr boshlarida Matsushita¹, Kasuga², Kobayashi³ kabi olimlarning izlanishlari asosida shakllangan dastlabki nazariy qarashlar yapon tilshunosligida aspekt tushunchasining evolyutsiyasiga zamin yaratdi. Kindaiichi⁴ va Suzuki Shigeyuki⁵ singari tadqiqotchilar esa aspektual klassifikatsiya, leksik va grammatik aspekt o'rtasidagi farqlar, shuningdek, ko'makchi fe'llarning aspektual funksiyalari haqida muhim ilmiy qarashlarni ilgari surdilar. Ayniqsa, Yoshikava Taketokining (1973)⁶ har bir yordamchi fe'lni chuqur tahlil qilgan fundamental tadqiqoti keyingi izlanishlar uchun asosiy manba sifatida e'tirof etiladi.

XXI asrga kelib yapon tilshunosligida ko'makchi fe'llarning o'rganilishi soddalashgan grammatik ko'rinishdan chuqur kognitiv-pragmatik tahlil bosqichiga o'tmoqda. Bu esa ularning tilshunoslikdagi mavqeini yanada mustahkamlamoqda

¹松下大三郎(1901)『日本俗語文典』。誠之堂。

²春日政治(1918)「尋常小学国語読本の語法研究」

³小林好日(1927)「国語国文法要義」

⁴金田一春彦(1976)『日本語動詞のアスペクト』。金田一春彦(編)『日本語動詞のアスペクト』。東京:むぎ書房。pp. 155-329.

⁵鈴木重幸(1976)日本語の動詞のすがた(アスペクト)について——スルの形と～シテイルの形』。金田一春彦(編)『日本語動詞のアスペクト』。東京:むぎ書房。pp. 63-83.

⁶吉川 武時「現代日本語動詞のアスペクトの研究」。金田一春彦(編)『日本語動詞のアスペクト』。東京:むぎ書房。pp. 155-329.

va yapon tili grammatikasini yanada kengroq va chuqurroq o'rganish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Yapon tilidagi yordamchi fe'llarning shakllanishi va funksional rivojlanishi turli yondashuvlar asosida o'rganilgan. Semantik va pragmatik jihatdan bu jarayonni Yamada Toshihiro⁷ hamda Kondo Kaori⁸ izchil tahlil qilgan bo'lsa, kognitiv tilshunoslik doirasida Zhāng Yòuhuá⁹ tomonidan ko'makchi fe'llarning grammatikalashuv jarayoni o'rganilgan. Semantik va sintaktik nuqtai nazardan esa bu masalaga Masami Murata¹⁰ va Sumida Tetsuro¹¹ tomonidan yondashilgan. Ko'makchi fe'llar tizimi umumiy lingvistik nuqtai nazardan I Jong Ku¹² tomonidan tadqiq qilingan bo'lsa, pragmatik aspekt asosida Shi Youhi¹³ tomonidan tahlil etilgan. Dialektologik jihatdan, xususan Okinava Shuri shevasidagi yordamchi fe'llarning o'zgarishlari esa Toyama Nana¹⁴ dissertatsiyasida atroflicha yoritilgan.

Yapon tilida ko'makchi fe'llar 補助動詞 (hojo doushi) deb ataladi. Yapon tilida quyidagicha ko'makchi fe'llar mavjud: いる、ある、くる、いく、しま
う、おく、みる、みせる、やる、あげる

Shu bilan birga, ularning hurmat ifodasini amalga oshiruvchi shakllari (待遇形式¹⁵) ham mavjud bo'lib, ularga ていらいっしやる、ていただく、てくださ
る、てごらんに入れる kabilar kiradi.

日本語教育事典 (“Yapon tili o'qitish ensiklopediyasi”)da 補助動詞

⁷ 山田敏弘著(2004) 『日本語のベネファクティブ-「てやる」「てくれる」「てもらう」の文法-』博士論文381p

⁸ 近藤 優美子(2022) 補助動詞 “しまう” の研究 -本動詞との連続性に着目して-博士論文 大阪大学

⁹ 張 又 華(2017) 認知言語学の観点から見た日本語の文法化現象—「テシマウ」形式を中心に— 博士論文156p.

¹⁰ Masami Murata (2003) Syntax and semantics of existentials ar-u and i-ru in Japanese. Doctoral dissertation. 351p

¹¹ 住田哲郎 (2011) 「移動動詞「来る」の文法化とヴォイス機能」博士論文 神戸大学. 202 p

¹² 李, 廷玉 (2010) 現代日本語のテ形補助動詞研究. 博士論文

¹³ 施 葉飛 (2022) 日本語間接関与構文の語用論的研究. 博士論文152 p.

¹⁴ 當山奈那 (2015) 『沖縄首里方言におけるヴォイスと利益性の記述文法研究』 博士論文 琉球大学 177 p.

¹⁵ 待遇形式 (taiguu keishiki) - yapon tilida so'zlashuvda suhbatdoshlar orasidagi ijtimoiy munosabatlar, hurmat darajasi va mavqe farqlarini ifodalash uchun ishlatiladigan uslubdir. Bu asosan keigo — ya'ni hurmat ko'rsatish (suzokuro), o'zini past qilish (mizukara) va odatiy muloyimlik shakllari orqali amalga oshiriladi.

(ko'makchi fe'l) quyidagicha ta'riflanadi: "Boshqa fe'lning ortidan qo'shib, biror grammatik ma'no ifodalashga xizmat qiluvchi fe'l ko'makchi fe'l deb ataladi." Ushbu ta'rif ko'makchi fe'llarning asosiy funksiyasini yaqqol ifodalaydi va ularning mustaqil leksik ma'no bildirmasligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, yapon tilida ko'makchi fe'llar fe'lning て/で yoki い (ravishdosh qo'shimchalari) shakli orqali yasaladigan ravishdoshga birikadi. Fe'lning て qo'shimchasi orqali yasaladigan ravishdosh shakli gerund, gerundive, past participle yoki oddiygina て shakli sifatida talqin qilinadi. Biroq, ushbu shaklning hind-yevropa tillaridagi gerundiyan farqli jihatlar mavjud bo'lib, biz tadqiqotimizda uni fe'lning て shakli deb atashni ma'qul ko'rdik.

Alpatov ko'makchi fe'llarni shakl va qisman semantik jihatdan mustaqil fe'llar yoki predikativ sifatlar bilan o'xshashlikka ega bo'lgan, ammo mustaqil qo'llanilish imkoniga ega bo'lmagan va faqat mustaqil so'zlarga birikib keluvchi so'zlar sifatida qaraydi.¹⁶ Ushbu ta'rif ko'makchi fe'llarning morfologik va sintaktik xususiyatlarini yanada aniqroq tushunishga xizmat qiladi.

Yapon tilidagi ko'makchi fe'llarning qo'shimchalardan farqi shundaki, ular mustaqil fe'llarga omonim bo'lgan o'zak morfemadan iborat bo'lib, bu o'zak qism fe'lning boshqa qo'shimchalari bilan erkin birika oladi. Shuningdek, ularni ekvivalent fe'llar bilan almashtirish imkoniyati saqlanib qoladi (masalan *する* ko'makchi fe'li gonorativ ekvivalent bo'lgan *なざる, いたす* bilan almashtirilishi mumkin). Ular mustaqil fe'l bilan yordamchi so'zlar hatto mustaqil so'zlar orqali ham ajratilishi mumkin.

Shu bilan birga, ular o'zi aniqlashtirib kelayotgan fe'ldan ajralgan holda mustaqil qo'llana olmasligi, o'zidan oldingi fe'ldan boshqa so'zlarni boshqara olmasligi, ko'p hollarda o'zidan oldingi fe'l o'rtasiga boshqa mustaqil so'z qo'yib bo'lmaslik kabi xususiyatlari bilan mustaqil fe'llardan farq qiladi va yordamchi

¹⁶ Alpatov, V. M. (2005). Теоретическая грамматика японского языка: Введение. Москва: Восточная литература. Стр 282

so'zlarga yaqin turadi.¹⁷ Ko'makchi fe'l o'zi ergashib kelgan fe'l bilan birgalikda gap bo'lagi bo'lib keladi va uning sintaktik o'rni ko'makchi fe'lga qo'shilgan qo'shimchalar orqali belgilanadi.

Alpatov ko'makchi fe'llarni quyidagi guruhlariga bo'lgan:

1	Aspekt ko'makchi fe'llar	Holat davomiyligini ko'rsatuvchi ko'makchi fe'llar	いる、いらっしゃる、まいる、おいでになる、おる、ある
		Tayyorgarlik ko'makchi fe'llari	おく、みる、ごらんになる、みせる
		しまう fe'li	
2	Benefaktiv ko'makchi fe'llar	Berish ko'makchi fe'llari	やる、あげる、さしあげる、くれる、くださる
		Olish ko'makchi fe'llari	もらう、いただく
3	Yo'nalishni ko'rsatuvchi ko'makchi fe'llar		くる、いく
4	Gonorativ va depretsiativ ko'makchi fe'llar		なさる、なる、あそばす、する、いたす、もうす、もうしあげる、いただく、できる、ねがう
5	Imperative ko'makchi fe'llar		くれ、おくれ、やれ、たまえ、くれたまえ、おいで、

¹⁷Alpatov, V. M. (2005). Теоретическая грамматика японского языка: Введение. Москва: Восточная литература. Стр 283

			ください、ちょうだい、なさい、ごらん、いらっしやい、あそばせ
6	Adressiv ko'makchi fe'l		ございます
7	Modal ma'noli ko'makchi fe'llar va sifatlar	Xohishni ifodalovchi ko'makchi sifatlar	ほしい、いい
		Ruhsatni ifodalovchi ko'makchi sifatlar	いい、よい、よろしい
		Majburlik yoki taqiqni ifodalovchi ko'makchi fe'llar	いける、なる
8	Sintaktik ko'makchi fe'lli konstruksiyalar		する、ある、ない、ございます
		Sintaktik o'rinni o'zgartiruvchi	する
		Verbalizator	する

日本語技術文法研究会 (“Yapon tili texnik grammatika bo'yicha ilmiy jamiyat”) (2008: 280-281) ga ko'ra, ko'makchi fe'llar quyidagi guruhlari bor:

1. Aspekt ko'makchi fe'llar (いる、ある、くる、いく、しまう)

2. Niyat va rejani ifodalovchi ko'makchi fe'llar (おく、みる、みせる)
3. Benefaktiv ko'makchi fe'llar (やる、くれる、もらう)
4. Boshqalar (ほしい)

Aspektual ko'makchi fe'llar, benefaktiv konstruksiyalar, hurmat (gonorativ) ifodalari, shuningdek, modal va imperativ ko'makchilar yapon tilidagi nutqning grammatik asoslarini tashkil etadi. Yordamchi fe'llarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular mustaqil leksik ma'noga ega bo'lmasdan, asosiy fe'lga ergashib, grammatik ma'nolarni — holat, davomiylik, istak, majburlik, imkoniyat, hurmat va boshqa ko'plab ma'nolarni ifodalaydi.

Ko'makchi fe'llarning ravishdosh (て shakli) bilan birikishi va u orqali hosil bo'ladigan ko'plik, vaqt va nutq uslubiga oid o'zgarishlar bu fe'llarning struktur imkoniyatlarini yanada boyitadi. Ular so'z yasash emas, balki gapdagi sintaktik va semantik bog'lanishlarni ifodalashda faol ishtirok etadi. Ayniqsa, gonorativ ko'rinishlar orqali ijtimoiy-madaniy kontekstda muhim kommunikativ vazifani bajaradi.

Alpatov va boshqa olimlar tomonidan taqdim etilgan klassifikatsiyalar yordamida ko'makchi fe'llarning funktsional va shakliy guruhleri aniq ajratilgan bo'lib, bu tahlillar ularni nafaqat yapon tili grammatikasining bir bo'lagi sifatida, balki tilshunoslikning umumiy nazariy yondashuvlari doirasida ham tahlil qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, yapon tilidagi ko'makchi fe'llar tili tizimining ijtimoiy, semantik va sintaktik darajadagi nozik jihatlarini mujassam etgan murakkab grammatik birliklardir. Ularning o'rganilishi yapon tili grammatikasini chuqurroq tushunishga, til o'rgatuvchilar va o'rganuvchilar uchun samarali metodologik asos yaratishga xizmat qiladi. Bu esa tilshunoslik sohasidagi keyingi izlanishlar uchun mustahkam poydevor bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alpatov, V. M. (2008). Теоретическая грамматика японского языка: Введение. Москва: Восточная литература. 544 с.
2. Masami Murata (2003) Syntax and semantics of existentials ar-u and i-ru in Japanese. Doctoral dissertation. 351p
3. 山田敏弘著(2004) 『日本語のベネファクティブ-「てやる」「てくれる」「てもらう」の文法-』博士論文381p
4. 近藤 優美子(2022) 補助動詞“しまう”の研究 —本動詞との連続性に着目して—博士論文 大阪大学
5. 張 又 華(2017) 認知言語学の観点から見た日本語の文法化現象—「テシマウ」形式を中心に— 博士論文156p.
6. 住田哲郎 (2011) 「移動動詞「来る」の文法化とヴォイス機能」博士論文 神戸大学. 202 p
7. 李, 廷玉 (2010)現代日本語のテ形補助動詞研究. 博士論文
8. 施 葉飛 (2022)日本語間接関与構文の語用論的研究. 博士論文152 p.
9. 當山奈那 (2015) 『沖縄首里方言におけるヴォイスと利益性の記述文法研究』 博士論文 琉球大学 177 p.
10. 鈴木重幸(1976)日本語の動詞のすがた (アスペクト) について——スルの形と～シテイルの形」. 金田一春彦 (編) 『日本語動詞のアスペクト』. 東京: むぎ書房. pp 63-83.
11. 高橋太郎 (1969) 「すがたともくろみ」. 金田一春彦 (編) 『日本語動詞のアスペクト』. 東京: むぎ書房. pp. 117-155.
12. 吉川 武時「現代日本語動詞のアスペクトの研究」. 金田一春彦 (編) 『日本語動詞のアスペクト』. 東京: むぎ書房. pp. 155-329.
13. 高橋太郎 (1969) 「解説 日本語動詞のアスペクト研究小史」. 金田一春彦 (編) 『日本語動詞のアスペクト』. 東京: むぎ書房. pp. 329-356.